

“ALPOMISH” DOSTONIDA YETAKCHI AYOLLAR: BARCHIN VA QALDIRG’OCH OBRAZLARINING QIYOSIY TADQIQI

Shohinur RAHMATALIYEVA

tayanch doktorant

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

O‘zbek tili, adabiyoti

va folklori instituti

Toshkent, O‘zbekiston

e-mail: shohinurrahmataliyeva@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Alpomish” dostonining yetakchi ayol obrazlari va ularning epik faoliyati tahlil etiladi. Ularning epos strukturasidagi o‘rni, bosh qahramonga tayanch va ko‘makchilik vazifalariga keng urg‘u beriladi.

Tayanch so‘zlar: “g‘ayritabiiy homila”, alp, tayanch va ko‘makchi, kurash motivi, alp ayol, onalik maqomi, alpng harakatga keltiruvchi kuch.

ВЕДУЩИЕ ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В ЭПОСЕ "АЛПАМИШ": СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОБРАЗОВ БАРЧИН И КАЛДЫРГОЧ

Шахинур РАХМАТАЛИЕВА

Базовый докторант

Институт узбекского языка, литературы и фольклора

АН Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

e-mail: shohinurrahmataliyeva@gmail.com

Аннотация

В данной статье проанализированы ведущие женские образы в эпосе «Алпомиш» и их эпическая деятельность. Особое внимание уделено их роли в структуре эпоса, а также их функции как опоры и помощник главного героя.

Ключевые слова: «необычное зачатие», альп, опора и помощник, мотив борьбы, женщина-альп, материнский статус, движущая сила альпа.

O‘zbek xalq dostonlarining gultoji sanalgan “Alpomish” dostonidagi yetakchi ayol obrazlar – Barchin va Qaldirg‘och orqali qahramonlik dostonlariga xos ayollar obrazining yuksak badiiy formulasi namunasini ko‘rish mumkin. Ularning epos tarkibiy qismiga kirib kelishi ham boshqa turkum dostonlaridagi ayollar obrazidan farq qiladi. Ma’lumki, doston kirish qismi “farzandsizlik motivi” bilan boshlanib, aka-uka biylar farzand talabida Shohimardon pir ravzasiga borib toat-ibodat qiladilar. Xalq epik asarlarida, uzoq kutilgan yoki “tasodifiy homiladorlikning paydo bo‘lishi ikki tushuncha, biri magiya, ikkinchisi diniy

e'tiqod bilan izohlangan. Bunday qarash, e'tiqod, diniy tushunchalar mazkur motivning tashkil topishiga sababchi bo'lgan" [2; 132]. Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan kuylangan "Alpomish" dostonining variantida islom dinining ta'siri yaqqol seziladi. Unda xalqning diniy ongi oshgan, islomiy aqidalar mustahkam o'rin egallagan bo'lib, avvalgi magik e'tiqodlar asta-sekin zaiflashgan. Epik voqealar endilikda tabiat kuchlariga emas, yagona Ollohga sig'inish, unga ixlos va tavakkal qilish asosida yuzaga chiqadi. Pir obrazi esa Olloh bilan inson o'rtasidagi vositachi, diniy rishtalarni bog'lovchi muhim zanjir vazifasini bajaradi. Biylarning farzand talabida Shohimardon pir ravzasiga borib, 40 kun davomida duo qilishlari evaziga egiz farzandlar va bir qiz dunyoga keladi: "Boybo'ri, senga xudoyim bir o'g'il, bir qiz berdi, yolg'iz emas, egiz berdi; Boysari, senga xudoyim bir qiz berdi, egiz emas yolg'iz berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko'rsang, xaloyiqlarni yig'sang, to'y-tomoshalar bersang, to'yda qalandar bo'lib borib, bolalaringning otini o'zim qo'yib kelaman" [1; 6]. O'zbek xalq dostonlarida tug'ilajak bolaga ism qo'yish an'anasi ko'p uchraydigan motivlardan biri sanaladi: Biylar "farzandlarining uchovini ham olib kelib, pirning etagiga soladilar. Shohimardon piri Boybo'rining o'g'lining otini Hakimbek qo'ydi, o'ng kiftiga besh qo'lini urdi. Qo'lining o'rni dog' bo'lib, besh panjaning o'rni bilinib qoldi. Qizining otini Qaldirg'och oyim qo'ydi; Boysarining qizini otini Oy Barchin qo'ydi [1; 6–8].

Qahramonlarning ismi Shohimardon pir tomonidan qo'yiladi. Qizlarga Barchin va Qaldirg'och deb nom berilishi, ularning keyingi faoliyati bilan uzviy bog'liq. Barchin ismining lug'aviy ma'nosi turkiy manbalarga borib taqalib, ipak, ipak mato, ba'zan esa nozik va chiroyli ayol ma'nolarini bildiradi [7]. Barchin ismi nafaqat obrazning tashqi go'zalligi, balki uning ichki fazilatlarini – aql, irodaviy barqarorlik va alpga munosib tayanch bo'lish kabi jihatlarni ham ifodalaydi.

Qaldirg'och ismi shu nomdagi bahorning kirib kelishini bildiruvchi qush nomiga atab qo'yilgan bo'lib, "xabarchi", ezgulik elchisi, umid va yangilanish timsoli sifatida talqin qilinadi. Eposda Qaldirg'och ismining shu nom ostidagi qush bilan bog'lanishi unga ruhiy ko'makchilik, ezgu xabar yetkazuvchilik kabi vazifalarini yuklaydi, uning epos tarkibidagi missiyasi singil obrazi sifatida

chegaralanibgina qolmay, mifologik ildizga ega timsol sifatida keng yoritiladi. Yuqorida to'xtalganimiz, dostonning tug'ilish va ism qo'yish motivlariga oid fikrlarimiz orqali Barchin va Qaldirg'och obrazlarining epos tarkibiy qismidagi ishtiroki va ularning epik rolini yanada kengroq ko'rsatib berishdir. Ularning alp bilan teng maqomda tug'ilishi, homilaning vujudga kelishida mifologik kuchlarning ishtiroki, ism qo'yish jarayonida Barchinga tayanch, Qaldirg'ochga ko'makchilik maqomi berilishi, ularning eposdagi faoliyati an'anaviy ayol obrazlaridan farqli xususiyatlarni ochib beradi. Shu bois bu motivlar ushbu obrazlarni chuqurroq talqin qilishda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Alpomish, Qaldirg'och va Barchin obrazlari uchligi eposning ichki kuch manbasi, etnos yuksalishi uchun kurashuvchi kuchlar. Alp bir o'zi alp bo'la olmaydi. Uning ruhiy va ijtimoiy tayanchlari, Barchin – alp uchun irodaviy va ma'naviy tayanch, u ham alp: “Etnos yukini ko'tarish zimmasiga tushgan olovqalb (passionar) avlod peshqadami” [5; 65]. Qaldirg'och esa alpga ruhan ko'mak beruvchi, uni harakatga keltiruvchi kuch: “Boysun – Qo'ng'irotning oila qadriyatlarini, or-nomus, vatanparvarlik, odob-axloq, umuman yer qadriyatlarini bilan bog'liq quvvatni o'zida mujassam etadi” [5; 68]. Bu uchlik birgalikda epik kuchning muvozanatini ta'minlaydi hamda dostonning g'oyaviy va struktura qurilmasida muhim rol o'ynaydi. Bilamizki, feodalizm davri ijtimoiy-siyosiy tuzumi ayollar mavqeining pasayishi, ularning jamiyatdagi rolini cheklash bilan xarakterlanadi. Bu davrda patriarxal munosabatlar kuchayib, ayol ko'proq xonadon ichidagi vazifalar bilan chegaralanadi. Ayollarga ko'proq itoatkorlik, sukut va erkak qarorlariga bo'ysunish kabi talablar qo'yiladi. Shu bois, bu davr epik manbalarining aksariyatida ayollar ikkinchi darajali ijtimoiy subyekt sifatida ko'rsatish holatlari tez-tez uchraydi. Biroq “Alpomish” dostoni, uning Barchin va Qaldirg'och obrazlari qadimgi matriarxal qadriyatlarining, ayol jasorati va aql-zakovatining izlarini saqlab qolgani bilan ajralib turadi. Eposda ayolning jamiyatdagi o'rni va qadriyatini qayta tiklashga intilish mavjud. Bu jihatlarda Barchin obrazining kuchli ijtimoiy-ma'naviy pozitsiyasida yaqqol namoyon bo'ladi. U o'z taqdirini boshqalarga emas, avvalo o'z aql-u irodasiga tayanib hal qilishga intiladi.

Urug'-aymoq va otasini og'ir vaziyatga solmaslik, qabila sha'nini asrash kabi mas'uliyatli vazifalarni anglagan holda, Barchin alplar qarshisida mardonavor turib, o'z so'zini dadil ayta oladi:

“Eshitgin, qalmoqlar, aytgan tilimnan,
Meni olar kelmas sening qo'lingnan,
Badbaxt qalmoq, qolma kelgan yo'lingnan.
Meni olmoqqa hadding bormi, qalmoqlar,
O'z yo'lingga bora bergin, ahmoqlar.
Meni olarman deb xayol qilmagin,
Ketgin, qalmoq, kelgan yo'ldan qolmagin.
Unga qurbon menday oyimning joni,
Mening to'ram, bilsang, Boysin sultoni,
Oti Hakimbekdir, elda davroni,
Ko'p aylanma bunda, qalmoq, bema'ni” [1; 89].

Bu so'zlar ortida jasorat, yuqori darajadagi tafakkur, ijtimoiy mas'uliyat va qadimiy alp qizlarga xos qat'iyat mujassam. Barchinning bu xislati feodalizm davrining ayollarni cheklovchi stereotiplariga qarshi turuvchi, o'ziga xos mustaqil va faol epik ayol obrazining ifodasidir. Dostonning har bir variantida Barchinning bu o'ziga xosligi turlicha talqin etiladi. “Alpomish” dostonining Murod Otaboy o'g'li variantiga ko'ra, “Barchin o'zini zo'rlik bilan olib ketmoqchi bo'lgan qalmoq pahlavonlariga qarshi mardona kurashadi. Barchin qalmoq alplaridan uchtasini yakkama-yakka kurashda yengadi. Musobaqalarda qo'yilgan shartlarni bajarib, g'olib chiqqan Alpomishni belidan ko'tarib, yig'inni uch marotaba aylantiradi” [3; 41]. Yana bir baxshi Zohir Qo'chqor variantida Barchin va uning atrofidagi qizlar qilichbozlikda erkaklar bilan bellasha oladigan, o'zlari asos solgan Guliston shahrini qahramonlarcha himoya qilib, Toychixon qo'shinlariga qarshi kurashib, ularni yakson qilishlari haqida ta'kidlab o'tadi. Navbatdagi, dostonning Bekmurod Jo'raboyev kuylagan variantida doston sujetida Barchin qalmoq pahlavonlari bilan yakka o'zi kurashadi. Qalmoq alplarining, Alpomishniki mustasno bo'lgan holda, to'qsontasini yoyini sindiradi. Bu baxshining kuylagan

variantida “qadimgi eposning variantlaridagi matriarxat qoldiqlarining namunalari saqlangan feodal jamiyati kuylanadi” [3;41]. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tomonidan kuylangan variantdagi Barchin obrazi dostonning boshqa variantlaridagidek bevosita jang yoki kurashga qatnashmasa-da, unda erkaklarga xos jangavorlik ruhi, qat’iyat va iroda kuchini ruhiy olamida uyg‘unlashtira oladi. Bu obrazning ichki kuchi, aql-u zakovati va vaziyatga mos tadbirkorligi orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur variantda Barchin dostonning boshqa variantlaridagi faoliyatini umumlashtirgan tarzda alp qiz siymosini yaratadi. Doston strukturasida sevgi yo‘lida kurashuvchi emas, balki epik qurilmada faol ishtirok etuvchi, alpning g‘alabasiga ma’naviy tayanch bo‘luvchi obrazga aylantiriladi [3; 42].

Barchin 14–15 yoshli o‘smir qizlik chog‘ida, Ko‘kaman alpni yengishi, undagi g‘ayritabiiy kuchning oshkor bo‘lishidir: “Barchin ibo qilib, teskari qarab turib edi, Ko‘kaman alp Barchinning burumidan ushlab, poygaga qarab torta boshladi. Barchin o‘zini o‘ngg‘arib, qo‘lini uzatdi, bir qo‘li Ko‘kamanning yoqasiga yetdi, bir qo‘li bilan belbog‘idan tutdi. “Yo, Shohimardon pirim”, – deb ko‘tarib, chalqaramon qilib yerga qo‘ydi. Chap tizzasini ko‘kragiga qo‘yib turdi. Og‘zi-bumidan dirak-dirak qon keta berdi” [1; 89]. “Yo, Shohimardon pirim” deya Barchin o‘z piri, homiysidan quvvat oladi. U ham Alpomishdek homiy eranlarning himoyasida. Shu bilan birga, Barchinda ma’naviy kuch ham bor, alplarning barobar otdan tushib Barchinning qoshiga bostirib kelish vaqtida, o‘zini yo‘qotmay, ularga o‘z talabini o‘tkaza olishi, alplarning zo‘ri Ko‘kaldosh ekanini fahmlab (boshidagi sarjig‘asi uni alplardan ajratib turardi), undan olti oy muhlat so‘ray olishi, uning aql-u zakovatini ko‘rsatib beradi:

“Oltoygacha men yo‘liga qarayin,
Kelsa kelar Qo‘ng‘irot eldan Alpomish,
Kelmasa, men taqdirimdan ko‘rayin,
So‘ngra men ham birovingman bo‘layin,
Bir oltoygacha sizdan muhlat so‘rayin” [1; 90].

Xalq dostonlarida nikoh bo‘lag‘asida turgan qizlarning o‘ziga munosib yigit tanlashi, ularga sovchi bo‘lib kelgan yigitlar oldiga o‘z sinovlarini qo‘yishi,

shartlarni bajargan insonni tanlab, u bilan turmush qurishi kabi syujet qismlari an'anaviy sayyor syujet elementlari sanaladi. "Kitobi dadam Qo'rqud"da yaratilgan Bonu - Chechak, Seljon Xotun, Jajaqli kabi obrazlar qahramon jangchilar sifatida tasvirlanadi. Bu tema keyingi dostonchilarga traditsion manba bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, "Kitobi dadam Qo'rqud"da kuylangan "Bamsi - Bayrak Qonbo'ri o'g'li haqida" [8;35]gi sujetda Boybedjonbekning qizi Bonu Chechak o'ziga sovchi bo'lib kelgan yigitlar oldiga musobaqa shartlarini qo'yib, bu shartlarni bajarishda shaxsan o'zi qatnashadi. Masalan, Bamsi-Bayrak bilan ot poygasiga boradi, yoy otishadi, kurashga tushadi. Bu musobaqada Bamsi-Bayrak yengadi, shundan so'ngina Bonu-Chechak unga turmushga chiqishga rozi bo'ladi [8;43]. Barchinning "Alpomish meni deb Boysun-Qo'ng'irotdan kelibdi" degan xabarni eshitib ham, uning ortidan ketmasligi, balki Alpomish va boshqa alplarga sinov sharti qo'yib, ularni sinovdan o'tkazishi – Bonu-Chechak tomonidan qo'llanilgan shart motivining madaniylashgan, sayqallangan an'anaviy shaklidir: Barchin aytdi: – Alpomish kelsa, kepti-da, Alpomish keldi, deb men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi? Bul alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergan. Har kim maydonga ot soladi, otini o'zdirgan odam oladi. Har kimning o'z ko'ngli o'zidan qoladi. Mening to'rt shartim bor, shul to'rt shartimni qilgan kishiga tegaman. Xohi Alpomish qilib olsin, xohi qalmoqlaming biri qilib olsin, shul so'zimni xon to'ramga aytib bor" [1;46]. Barchin tomonidan qo'yilgan shartlar alplarning kuchi, merganligi va uddabronligini sinashi, g'olibni aniqlashi kerak.

Alpomish va to'qson alpning Barchin uchun kurashi odatdagi yor uchun bo'lgan kurashlardan tubdan farq qiladi. Bu yerda Barchin hokimyat birlashuviga sabab bo'la oladigan siyosiy kuch vazifasini bajarishi alplarga ma'lum. Ya'ni, alplarning bari bir ayol uchun kurashishi, nafaqat kim zo'r ekanligini bilish, balki, bir vaqtning o'zida o'n ming uyli Qo'ng'irotdan qabilasiga bosh bo'lib, Kashal yurti taxtiga munosib voris bo'lish ham edi: "Barchinga uylanish alplarga, o'n ming uyli Qo'ng'irotda biylik va Kashal taxtiga da'vogarlik qilish uchun siyosiy tayanch huquqini beradi. Ko'kaldosh va alplar masalaning bu jihatini yaxshi bilishardi.

Alplar Barchin timsolida bo‘linib borayotgan Kashal mamlakati va taxti uchun ham talashmoqda edilar” [5; 46].

Barchin hokimiyat uchun kurash ramzi emas, balki qahramonni harakatga keltiruvchi ruhiy kuch hamdir. Uning shijoat bilan aytgan so‘zlari Alpomishni alplikka munosib harakat qilishga undaydi:

“Yiqolmasang, to‘ram, navbat tilayin,
Erkak libosini o‘zim kiyayin...” [1; 199].

Barchin tomoshabin yoki oshiqligi uchun emas, balki jangga tayyor alp qiz sifatida yuqoridagi gaplarni aytadi. U epik kuchga ega, alp o‘rniga maydonga chiqishga tayyorligini bildiradi. Bunday da‘vatning natijasidan, “Yor so‘ziman sherdil bo‘lib ketadi, Chirpib Ko‘kaldoshni ko‘kka otadi” [1;199], – ilhom olgan Alpomish, kurashda Ko‘kaldoshni yengib, g‘olib bo‘ladi.

Barchin va Qaldirg‘och Alpomishning tayanchlari sanalib, sujet rivojida bu ikki obrazning suhbat yoki birgalikda yuzma-yuz harakat qilgani deyarli uchramaydi. Bu hol ularning faoliyati asosan alp obraziga nisbatan belgilanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu obrazlar funksional jihatdan bir-birini to‘ldirib, epik kompozitsiyada ular orasidagi o‘zaro aloqaga emas, umumiy vazifalarga urg‘u beriladi. Barchinning Alpomishga yuborgan chorlov maktubi Qaldirg‘ochning qo‘liga kelib qolishi, chechaning qiyin vaziyatda qolganini akaga yetkazish va uni safarga otlantirish motivida Barchin va Qaldirg‘och orasidagi yashirin uyg‘unlik ko‘zga tashlanadi. Qaldirg‘och – Alpomishning emikdoshi va egiz singlisi sifatida eposda alohida mavqega ega. Uning obrazi alpning ruhiy olamini anglash, ichki quvvatini ochib berishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Eposda etnosning orzu-istaklarini o‘zida mujassamlashtirgan alpga singil bo‘lish ham sharaflilik ham mashaqqatlidir. Alpomishni “alplik dardi” [5;23]dan harakatlantiruvchi: “Alpni uyg‘otish missiyasi, Qaldirg‘ochning, singilning zimmasiga tushgan” [5;69], Alpomish Barchining maktubiga e‘tiborsizligini ko‘rgan singil unga jur‘at berish, g‘ururini uyg‘otish, alpni muqim o‘rnashib olgan makonidan siljitish oson bo‘lmasligini yaxshi anglay oladi:

Mard yigitning yori talash bo‘larmi,

Er yigitning yorin qalmoq olarmi,
Barchin checham talash bo‘lib qolarmi,
Senday beklar bul bexabar turarmi?! [1; 97].

Qaldirg‘och alpning quvvatini alpga ham sezdirgan holda, homiy kuchlarning yerdagi vakilasiga aylana olgan obrazdir. U an‘anaviy homiy kuchlar singari epik qahramonning safarga tayyorlanishida ko‘maklashadi. Alpomishga Boychiborni nazarkarda ot ekanligini bildirib, u bilan murodi hosil bo‘lishini aytadi. Alpni munosib kiyintirish, qurol-yarog‘ini tayyorlash kabi vazifalarni bajaradi. Bu jihatlar uning faqat singil emas, balki alpga ruhiy-ma‘naviy kuch beruvchi, uni epik vazifasiga tayyorlovchi muqaddas ayol obraziga aylanganini ko‘rsatadi. Qaldirg‘och obrazida qadimiy homiy ruhlar, ayniqsa ayol jinsli yordamchi kuchlar timsoli epik tarzda qayta talqin qilinadi: “Qaldirg‘och oddiy ayol emas, Alpomishning ilohiy homiylaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Zero, Alpga singillik qilish, Alpomishdek Alpning tulporini egarlash, uni o‘q o‘tmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, olovda kuymaydigan qilib kiyintirish, ya‘ni qahramonni ilohiy asbob-anjom va ot bilan ta‘minlash homiy obraz haqidagi tasavvurlarning ko‘makchi qahramondagi badiiy ifodasidir” [6;107].

“Alpomish” dostonining ikkinchi qismida, Barchin va Qaldirg‘och faoliyati passiv holatga o‘tadi. Buning sababini, Alpomishni Surxayl maston tomonidan asir olinib, izsiz g‘oyib bo‘lishi bilan izohlashimiz mumkin. Shuningdek, ikkinchi qismda, etnos birlashdi, endi uning tashqi dushmani yo‘q. Dushman endi ichki tarafdin, Boybo‘rining Ultontoz ismli o‘g‘li taxtga da‘vogarlik qilishi bilan boshlanadi. “Tashqi dushman elni birlashtirsa, ichki dushman bo‘laklaydi. Bunday vaziyatda etnos tarkibidagi qavmlar, toifa, guruhlar bir-biriga zimdan qarshi chiqadi, natijada etnos falaj holatga tushadi” [5;67]. O‘gay o‘g‘il – Ultontozning Alpomishning nikohidagi ayolga ko‘z tikishi, Barchinni avvalgi mavqeidan mahrum etib, uning qadr-qiymatini toptashi – epik axloq mezonlariga zid. Bunday xatti-harakatlar faqat axloqan qulagan, hokimiyatni shaxsiy nafsiga yo‘lida suiste‘mol qiluvchi shaxs – Ultontoz kabi obrazlar orqali ifodalanadi. Uning hukmronligi davrida Barchin va Qaldirg‘och kabi kuchli ayollar bilan birga butun

urug' va el vakillari aziyat chekadi. Barchinning ilgari to'qson alplarga bas kelgan quvvati va shijoati susaygani, uning endi kurashuvchi emas, onalik maqomiga o'tganini bildiradi. Bu esa Alpomishning yo'qligi natijasida yuzaga kelgan holat bo'lib, eposda alp – ma'naviy va ijtimoiy suyanch, u bo'lmasa jamiyat, ayol, el ham zaiflashadi degan g'oya ifodalanadi. Shu orqali epos tarkibiga kiruvchi etnosdagi muvozanat, adolat va kuch, alp – ya'ni birlashtiruvchi rahbar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Barchinning kuchi esa shunchaki zaiflashmaydi, balki onalik, avlodni asrash, sabr va chidam timsoliga aylanadi.

Alpomish uchirgan g'ozning Qaldirg'och yoniga kelib qo'nishini – epik ramz sifatida talqin etish mumkin. G'oz – ezgu, yaxshi, qutli xabar do'st [4;77], uning aynan Qaldirg'och tuya boqib yurgan yerga kelib qo'nishi, singilning ruhiy sezgirligi va vaziyatni anglash qobiliyatini ko'rsatadi. Akaning tirikligidan xabar topgan, Qaldirg'och vaziyatning og'irligini anglab, darhol Qorajonni xabardor qiladi va uni Alpomishni qutqarish uchun safarga undaydi. Bu esa uning faqat ruhiy ko'makchi emas, balki epik harakatni davom ettiruvchi va uni to'g'ri yo'nalishga soluvchi vositachi sifatidagi funksiyasini ochib beradi.

Yuqorida tadqiq etilgan Barchin va Qaldirg'och obrazlari xalqning tasavvuridagi qahramon, alp qizlar haqidagi qarashlarining umumlashma timsollaridir. Ularning yurtni boshqaruvchi alpga yorlik, singillik qilish vazifasi ortida boshqa muhim funksiyalar ham turishi fikrimizning yuqori qismida ochiqlandi. Bu obrazlar orqali dostonlarda ayollar faqat ikkinchi darajali, sevgi, muhabbat yoki naslni davom ettiruvchi vosita emas, balki epos strukturasida faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'la olishi ko'rsatib beriladi. Aytish mumkinki, Barchin va Qaldirg'ochsiz Alpomish to'laqonli alplik maqomiga yetolmasdi. Bu bog'liqlik ularning bir vaqtda tug'ilganligi, ya'ni bir maqomda yaratilganligidan boshlanib, butun epos bo'ylab uzluksiz davom etadigan mazmuniy zanjir sifatida namoyon bo'ladi. Ularning har biri alohida epik vazifani bajarsa-da, birgalikda alp obrazining ma'naviy poydevorini tashkil etadi. Barchin – alp uchun tayanch, maqsad timsoli, Qaldirg'och – ruhiy ko'makchi, harakatga undovchi, uni yo'ldan adashmaslikka chorlovchi kuch. Bu ikki obrazni eposda markazlashgan

hokimiyatni shakllantiruvchi, kelajak avlodga yo‘l ko‘rsatuvchi faol ayol vakilalari sifatida talqin etishimiz mumkin. Homiy kuchlarning Barchinni tayanch, Qaldirg‘ochni ko‘makchi sifatida tanlashi – bu obrazlar genezisining matriarxat davri qadriyatlari bilan bog‘liq ekani, ya‘ni ayollar qadimda ijtimoiy, ruhiy va ma‘naviy yetakchilikka ega bo‘lganini eslatadi. Shunday qilib, Barchin va Qaldirg‘och obrazlari birgalikda eposning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari sifatida talqin etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алпомиш. Фозил Йўлдош ўғли варианти. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2016.
2. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1998.
3. Мусина, Ғолима. Туроннинг алп қизлари: бадиа. – Тошкент: Ёзувчи, 1997.
4. Турдимов Ш. Ўзбек мифалогияси ва фольклори. – Тошкент: Фан, 2023.
5. Турдимов Ш. Этнос ва Эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.
6. Эшонқул, Жаббор. Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2019.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000.
8. Ўзбек халқ достонларида хотин-қизлар образи. – Тошкент: ФАН, 1983.